



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Nurmatova Muazzam Po'latjonovna CHINGIZ AYTMATOVNING „OQ KEMA“ ASARINI O'RGANISH	7
2. Anyozova Raxima Botirovna BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY VA UNING “XAMSA” ASARI HAQIDA.....	9



АДАБИЁТ

CHINGIZ AYTMATOVNING „OQ KEMA“ ASARINI O`RGANISH

Nurmatova Muazzam Po`latjonovna

Namangan viloyati Pop tumani

23-sonli umumta`lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Tel: + 93 942 08 15

Annotatsiya: ushbu maqolada „Oq kema“ asarini o`rganish, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari, asar timsollari va ramziy obrazlar tahlili haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: jahon adabiyoti, „Oq kema“ asari, ramziy obrazlar, shoxdor ona bug`u, baliq, test, „Aqliy hujum“ metodi

Umumta`lim maktablarida adabiyot darslarini tashkil etishda mumtoz adabiyot, xalq og`zaki ijodi, XX asr o`zbek adabiyoti tarixini o`rganish bilan birgalikda jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishish, badiiy asarlarni o`qib-o`rganish bo`yicha ham ma`lum soatlar ajratilgan. Jumladan, qirg`iz adabiyoti vakili, jahon adabiyotida o`zining munosib o`rniga ega bo`lgan ijodkor Chingiz Aytmatovning

„Oq kema“ asarini o`rganishga alohida e`tibor qaratilgan. Asarning mazmuni hamda mohiyatini hisobga olgan holda 7-sinf o`quvchilariga o`rganish va o`qish uchun tavsiya qilingan. Dars jarayonida o`quvchilarga quyidagi holatda mavzuni o`rgatib borishimiz mumkin.

„Bugun biz sizlar bilan adibning „Oq kema“ asari bilan tanishamiz. Avvalo, asarni o`rganishdan oldin ushbu asar haqida nazariy bilimga ega bo`lib olishimiz kerak. „Oq kema“ qissasi 1970 – yilda yozilgan, 7 qismdan iborat. Asarda **Shoxdor ona bug`u, baliq va oq kema** kabi ramziy obrazlar qo`llangan. **Shoxdor ona bug`u** - ezgulik, yaxshilik, olijanoblik, mehr-oqibat va xalq, **oq kema** - to`kislik, mehr-u oqibat, diydor, **baliq** esa bola uchun erk va qudrat ramzidir. „Oq kema“ asariga „Ertakdan so`ng“ degan ikkinchi nom ham berilgan. Biz asarning to`liq nusxasi bilan tanishib chiqsakina, bolaning ruhiyatini tushuna olamiz“.

Ma`lumotlarni o`rganib bo`lgach, „Aqliy hujum“ metodi asosida o`quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Quyidagi savollarni diqqatingizga havola qilmoqchiman:

1. „Oq kema“ asari qachon yozilgan?
2. Asarning janri nima?
3. Oq kema nimaning ramzi hisoblanadi?
4. Shoxdor ona bug`u qanday ma`nolarni anglatadi?
5. Baliq qanday timsol ?

Yoki „Test“ sinovi yordamida bilimlarni takrorlab olish ham mumkin.

Berilgan bilimlar o`quvchilar xotirasida qay darajada qolganini bilish maqsadida quyidagi test savollari bilan ishlanadi.

TEST

1. Asar nima uchun „Oq kema“ deb nom olgan?

2. Asardagi ramziy obrazlarni sanang.

3. Asarning bosh qahramoni kim?



4. Asar qachon yozilgan?

5. “Oq kema” asarining janri nima?

Javoblar:

1. Oq kema to`kislik, mehr-u oqibat, diydor ramzi bo`lgani uchun shunday nomlangan.
2. Shoxdor ona bug`u, oq kema, baliq.
3. BOLA
4. 1970-yil
5. Qissa

Shundan so`ng qissadan berilgan boblar o`qib –o`rganiladi. O`quvchilar asar matni bilan tanishib chiqishi muhim ekanligi alohida ta`kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 7-sinf Adabiyot darsligi
2. „Adabiyot” universal qo`llanma
3. Ch.Aytmatov „Oq kema” asari



BUYUK SHOIR VA MUTAFAKKIR ALISHER NAVOIY VA UNING "XAMSA" ASARI HAQIDA

Anyozova Raxima Botirovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani 7-son
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+998(94)2347989
anyozovar@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy va uning "Xamsa" asarining yaratilishi haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy, Alisher Navoiyning bolalik chog'lari, G'iyosiddin Kichkina, Halimabonu, Salimabonum, Xuroson, Hirot, Xamsa.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haqida keyingi yillarda matbuotda chop etilayotgan materiallarda, asosan, uning asarlari tahliliga ko'proq o'rin berilyapti. Biroq bu ulug' zotning hayoti va ijod yo'lini hamma yaxshi biladi, degani emas. Chunki avlodlar almashinyapti. Shu bois hozirgi kun kishilari, xususan, yoshlarga vaqti-vaqti bilan ulug' bobomizning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlarni etkazish zarurati hech qachon yo'qolmaydi.

Bolalik chog'lari:

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xuroson davlatining poytaxti — hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot shahrining Bog'i Davlatxona mavzesida tug'ildi.

Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina temuriylar saltanatining sodiq mulozimlaridan, onasi ham shu xonadon xizmatidagi ayollardan biri edi.

Navoiyning o'zi bu haqda:

Otam bu ostonning xokbezi,

Onam ham bu saro bo'ston kanizi, —deb yozgan edi.

G'iyosiddin Kichkina oilasi bilan temuriylar xonadoni o'rtasida ilgari zamonlardan ko'kaldoshlik, ya'ni emikdoshlik bo'lgan.

Alisherning onasi amirzoda shayx Abu Said Changiyning qizi bo'lgan. Ayrim mutaxassislar uning ismi yo Halimabonu, yo Salimabonu bo'lgani haqida taxminiy ma'lumot keltirgan.

Alisherning tog'alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiy ham shoir edi. G'aribiy musiqa ilmini puxta bilar, yaxshi sozanda ham edi. Tog'alari turkiy va forsiyda she'rlar bitgan. ...

1500 yilning yozida Astrobodda Husayn Boyqaroning Xadichabegimdan tug'ilgan o'g'li — Muhammad Husayn otasiga qarshi bosh ko'taradi. Shoh o'g'liga qarshi qo'shin tortadi. Yilning dekabriga borib ota-o'g'il o'rtasida sulh tuziladi. Sulton Husayn mirzoning Hirotga qaytayotgani haqida xabar keladi. Zamona udumiga ko'ra, 1501 yilning 1 yanvar kuni Navoiy ham bir guruh davlat arboblari va poytaxtning ko'zga ko'ringan kishilari safida shohni kutib olgani chiqadi. Podshoh peshvoz chiqqanlarga yaqinlashgan mahalda shoirning ahvoli og'irlashdi. Uning boshini Sulton Husaynning quchog'iga qo'yishdi. Navoiy shu tariqa hushini yo'qotdi. Tabiblarning bir qismi unda sakta kasali xuruj qilganini, tezroq qon olish kerakligini aytdi. Boshqalar uni Hirotga olib borib, tabiblar maslahatidan so'nggina undan qon olish lozim degan fikrga keldi. Shoirmi shaharga qaytardilar, tomirlaridan qon chiqmadi. Tabiblar kech qolgan edi.

Shu tariqa Navoiy 1501 yil 3 yanvar kuni Hirotta vafot etdi.

"Xamsa"ning yaratilishi

Ozarboyjonlik shoir Nizomiy Ganjaviy (1141 – 1209) besh doston yaratib, xamsachilik an'anasini boshlab berdi. Navoiygacha bo'lgan davrda hindistonlik o'zbek shoiri Xusrav Dehlaviy ham "Xamsa" yaratib, shuhrat qozondi. Ashraf ham "Xamsa" yaratgan edi, biroq uning bu boradagi urinishi Xusrav Dehlaviy darajasiga ko'tarila olmadi. Navoiy "Xamsa" yozish rejasini pishitib yurgan yillari Abdurahmon Jomiy ham Nizomiy "Xamsa"ga javob yozishga jadal kirishgan, "Haft avrang"ning sahifalari peshma-pesh qog'ozga tushayotgan edi.²

Navoiy "Xamsa"ni misli ko'rilmagan bir qisqa muddatda yozib tugalladi. 1483 yili boshlagan ishini 1485 yili nihoyasiga etkazdi.

"Xamsa"ni tugallab, Navoiy uni Husayn Boyqaroga taqdim etganida shoh shoirmi otga mindirib, bir necha qadam o'zi piyoda otni etakladi. Bu nodir voqea temuriy hukmdorning milliy adabiyot qadrini naqadar yuksak baholay olganidan dalolat beradi.



Navoiy “Xamsa”ning so‘nggi dostoni – “Saddi Iskandariy”ning yakunlovchi bobida Nizomiy o‘z “Panj ganj”ini o‘n besh yilda yozib, uni yana o‘n besh yil isloh qilgani, ya’ni qayta ishlaganini, shu tariqa o‘ttiz yil barcha ishlarni yig‘ishtirib, odamlardan o‘zini chetga olib mehnat qilganini yozadi. Hindistonlik Xusrav Dehlaviy ham “Xamsa”sini yozish uchun o‘ttiz yil bo‘lmasa ham, uning yarmicha, hech bo‘lmaganda, uchdan biricha, ya’ni kamida o‘n yil zahmat chekkanini aytadi. “Ular bu beshliklarini yozayotganda tamomi tashvishlardan xoli tarzda ijod qildi, — deydi Navoiy. — Lekin men bir lahza bo‘lsin xalq g‘amu tashvishidan ajralmagan holda qalam tebratdim. Shunda ham ikki yilda “Xamsa”ni tugatdim. Agar faqat yozilgan paytlarining o‘zigina hisobga olinsa, olti oydan oshmaydi. Buning ustiga, men “Xamsa”mni forsiyda emas, turkiyda bitdim!”³

“Xamsa” faqat Navoiy ijodi yoki birgina o‘zbek adabiyotining cho‘qqisi emas. U Sharq adabiyoti, shuningdek, jahon so‘z san’atining ham eng buyuk badiiy obidalaridan biri hisoblanadi. “Xamsa” yaratilishi bilan o‘zbek adabiyotining jahonning yuksak pog‘onalarga ko‘tarilgan adabiyotlaridan biriga aylandi.

Ushbu maqola buyuk ajdodimiz haqida bilimimizni yanada to‘ldirish, bilganlarimizni mustahkamlash maqsadida e’lon qilinyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Султонмурод Олим.О’qituvhiga yordam. Ма’rifat.2018.5-b.
2. e-adabiyot.uz. // O’zbekistonda adabiy harakatlar. 3-sahifa.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000